XALQ DEPUTATLARI BUXORO TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-018-2-32-K/24 Buxoro tumani

Buxoro tumanining 2025 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrdagi “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1011-sonli Qonuniga va Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qaroriga muvofiq, Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024 yil 26 dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Buxoro tumani mahalliy budjetining 2025 yilgi daromadlari **123478,2 mln.so‘m** hamda mutanosib ravishda xarajatlari **123478,2 mln.so‘mga** tasdiqlanganligi, shuningdek Buxoro tumani mahalliy budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori **1144,0 mln.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Buxoro tumani budjeti daromadlarining 2025 yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga muvofiq** hamda tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga muvofiq**, shuningdek Buxoro tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

4. Buxoro tumani mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025 yil uchun **1650,3 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Buxoro tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Ochilov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Karimov), tuman soliq inspeksiyasi (Y.Karimov) bilan birgalikda 2025 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Ushbu qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi J.Mutaxarov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari S.Ochilov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi OCHILOV ANVARJON ZUBAYDILLOYEVICH

Xalq deputatlari Buxoro tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-018-2-32-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro tumani budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Kontingent rejasi	Mahalliy reja
1	Foyda solig‘i		
2	Aylanmadan olinadigan soliq	18 654 000,0	18 654 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	8 982 000,0	35 665 060,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 545 000,0	1 545 000,0
5	Aksiz solig‘i jami		
-	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		
-	pivo		
-	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 169 000,0	8 989 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	13 839 000,0	13 839 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	3 086 000,0	20 100 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 279 139,0	19 279 139,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		482 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 076 000,0	4 702 000,0
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar		
13	Davlat boji		
14	Yig‘imlar		
15	Jarimalar		
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	223 000,0	223 000,0
JAMI		**67 853 139,0**	**123 478 199,0**

Xalq deputatlari Buxoro tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-018-2-32-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy budjetidan 2025 yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	CHeklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**123 478 199**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*29 775 331*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 129 724*
2	Tibbiyot birlashmasi	*0*
	shundan:	
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0*
3	Madaniyat bo‘limi	*4 464 360*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*4 347 000*
5	Sport bo‘limi	*4 957 838*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 868 000*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 185 375*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*1 710 731*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 366 000*
10	Davlat soliq inspekciyasi	*0*
11	Hokimyat	*43 922 832*
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*124 000*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*34 650*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*30 652 852*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 323 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 650 330*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*791 763*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*98 000*

	Axborot-kutubxona markazlari	*693 763*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	*26 088 969*
14	Boshqa tashkilotlar	*0*

Xalq deputatlari Buxoro tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-018-2-32-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Buxoro tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari

foiz hisobida

№	Mahalliy budjet nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Buxoro tumani	0%	43%	100%	57%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%

№	Mahalliy budjet nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Aylanmadan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga

		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar								
1	Buxoro tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	100%	100%